

LUQMON BO‘RIXONNING “IMOM MOTURIDIY” ROMANIDA PORTRET

DOI: 10.5281/zenodo.11162778

Xamidova Dilorom Olimjonovna,

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti, Samarqand shahri

d.xamidova1994@gmail.com

Annotatsiya. Portret – badiiy asar qahramonlarini aniq tasavvur qilishga yordam beradigan tasvir vositalaridan biri. Ya’ni yozuvchining badiiy mahoratini, maqsad-muddaosini uning adabiy qahramon portretini tasvirlashiga qarab ham belgilasa bo‘ladi. Ushbu maqlolada ham obrazlarning xarakter-xususiyatlarini, ruhiy olamini ochib berishda portretning o‘rni, ijodkorning badiiy mahorati va ularning tadqiqi Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romani misolida atroflicha yoritiladi.

Kalit so‘zlar: portret, obraz, badiiyat, psixologik tasvir, tarixiy roman.

Аннотация. Портрет – один из инструментов изображения, помогающий ясно представить себе персонажей художественного произведения. То есть художественные способности и цели писателя можно определить по изображению им портрета литературного героя. В данной статье подробно освещена роль портрета в раскрытии черт характера и духовного мира героев, художественное мастерство создателя и их исследование на примере романа Лукмана Борихана «Имам Мотуриди».

Ключевые слова: портрет, образ, искусство, психологический образ, исторический роман.

Abstract. A portrait is one of the image tools that help to clearly imagine the characters of a work of art. That is, the writer's artistic skills and goals can be determined by his portrayal of the portrait of a literary hero. In this article, the role of the portrait in revealing the character traits and spiritual world of the characters, the artistic skills of the creator and their research are covered in detail, using the example of the novel "Imam Maturidi" by Lukman Borikhan.

Key words: portrait, image, art, psychological image, historical novel.

Badiiy obraz olamdag'i inson, narsa, hodisaning san'atkori tomonidan kuzatilgan va ijodkor ideali asosida ijodiy qayta sayqallangan aksidir. Badiiy obraz orqali san'atkori o'zini qiynagan masalalarini badiiy idrok qiladi, shu jumladan yozuvchi o'z asariga hayotiy voqeasi va insonlarni material qilib oladi. Agar asar tarixiy material asosida yozilgan bo'lsa, ma'lum tarixiy shaxslar ham badiiy asarning qahramoni etib tasvirlanadi. Yozuvchi o'z asaridagi qahramonlar, personajlar va boshqa unsurlarning har biriga ma'lum ma'no yuklaydi va uni individual sifatlar bilan tasvirlaydi, ana shu ma'no, maqsadga xos so'zlatadi, harakatlantiradi. Ularning har biri asarning yetakchi g'oyasini yoritishga xizmat qiladi. "Har bir xalq o'zining olis va yaqin o'tmishini nurlantirib turgan farzandlari yo afsonaviy qahramonlari nomini avloddan avlodga ertak shaklida yetkazib kelgan. Roman janri shu tarixiy va afsonaviy qahramonlar hayotini abadiylashtirish va ularga, zarur bo'lgan hollarda, yangi mazmun bag'ishlash maqsadida paydo bo'lgan. Bunday asarlarning qahramonlari xalq ruhiga yaqin bo'lgani, uning orzu va intilishlari bilan yo'g'rilmanni uchun sevib o'qilgan" [2,414].

Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" romanini bamisolai ulkan va tiniq ko'zgu, unda IX-X asrlarda yashagan buyuk ilohiyotshunos alloma, kalom ilmining mo'jizakor asoschilaridan, ulug' ajdodimiz imom Abu Mansur Moturidiy hayoti va u kishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan voqealar tasvirlanadi. Bu jihatdan asar qahramonlarining portret tasvirlari adibning o'z maqsadini yetkazishda yordamchi vosita vazifasini bajaradi. "Portret (fr. Portrait – tasvir) – badiiy asarda kishining tashqi qiyofasi, siyoshi, kiyim-kechagi va hokazolar tasviri. Portret atamasi, odatda, ikki ma'noda, ya'ni qahramonning tashqi ko'rinishi (tor ma'noda) va qahramonning individual-psixologik qiyofasi (keng ma'noda) qo'llaniladi. San'atkori yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasini chizish orqali ham uning ruhiyatiga kirishga intiladi. Xususan, portret unsurlaridan ko'z, yuz, kulgi, ko'z yoshi va boshqalar san'atkori uchun qahramon ruhiy dunyosini ochuvchi kalit bo'lib xizmat qiladi. [1,178]

Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo'lmish tavsifning bir ko'rinishidir. Epik turning roman janrida qahramon portretini batafsil chizish imkoniyati boshqa janrlarga nisbatan kengroq hamda qahramon xarakterini ochishda portret muhim

ahamiyat kasb etadi. Biz yuqorida portret–badiiy asar qahramonlarini aniq tasavvur qilishga yordam beradigan tasvir vositalaridan biri ekanligi haqida fikr yuritgan edik. Ya’ni ijodkorning badiiy mahoratini uning adabiy qahramon portretini tasvirlashiga qarab ham belgilasa bo‘ladi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joiz, portret orqali xarakterni ochib berishda yozuvchining obrazga bo‘lgan yondashuvini, uning asarda bajaradigan vazifasini anglash mumkin. Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” tarixiy romanida tarixiy shaxslar bilan bir qatorda to‘qima obrazlar ham tasvirlangan. Adib asar qahramonlarining portretini yaratishda badiiy adabiyotda mavjud bo‘lgan an’anani biroz chetlab o‘tgan deyishimiz o‘rinlidir. Ya’ni badiiy asarlarda asosan ijobiy qahramonlarning aksariyat hollarda har tomonlama yuksak etib tasvirlanadi. Biz tahlilga tortayotgan romanda esa yozuvchi hech bir qahramonni ham ichki tomondan, ham tashqi tomondan mukammal qilib gavdalantirmaydi. Ulardagi qusur va kamchiliklar boricha qalamga olinadi. Xususan, romanning birinchi qismida imom Moturidiyning portreti adib tomonidan dastlab cho‘ponlarga monand qilib chiziladi: “Quyosh Qorabo‘rk qoyasi qiyasidan go‘yo qimtinibgina mo‘raladi. Uning iliq nurlari olacha to‘nga o‘rangan, zarang tayoqqa xayolchan suyangan bir tutamgina et-suyakka xush yoqdi. Boshidagi gumbazsimon qalpog‘ini manglayidan andak surib qoshko‘zlarini silab qo‘ydi. Qator dov-daraxtlar ortidagi yalanglikka yoyilib ketgan o‘n-o‘n besh chog‘li qo‘y-qo‘zisi tomon yurindi”[3,22].

Adib Moturidiy siymosini to‘la holda bir o‘rinda ifodalamaydi, balki mazkur obraz portreti tasvirida subyektiv munosabatdan chetda turgan holda, asarning voqealar rivoji davomida turli personajlarning Abu Mansur Moturidiyga nisbatan munosabatlaridan kelib chiqqan holda uning siymosini to‘la talqin etishga urinadi. Masalan, uning rafiqasi Mastonbibi Moturidiyning yoshlik chog‘idagi tashqi ko‘rinishi, o‘zini tutishini quyidagicha ta’riflaydi: “O‘rta bo‘y, kichik jussa, shoshqintabiat, ammo alang-jalangdan holi, atrofiga faqat ko‘z qiri bilan qaraydigan, barragina soqol-mo‘ylovi siyraktob bu yigit yoshiga nisbatan ancha kichik ko‘rinardi” [3,81,82].

Jumladan, imom Moturidiyni o‘ziga raqib hisoblovchi Samarqand qozisi Idris Shomiy tomonidan quyidagicha tasvirlanadi: “U mashhur imom haqida eshitganida ko‘z o‘ngida bahodir kelbat, qosh-qabog‘i uyulgan, sersavlat, sersalobat zotni tasavvur etgan edi. Talaba ishora qilgan kichik jussa, o‘siq soqollari to‘zg‘in, yonoq suyaklari bo‘rtiq, qora sallasi andak qiyshi odamni ko‘rib hafsalasi pir bo‘ldi” [3,159].

Yozuvchi imom Moturidiyni bejizga bunday tasvirlamaydi, bu orqali uning xarakter-xususiyatlarini ham ifodalaydi. Ya’ni uning ilmga chanqoqligi, mehnatkashligi, halolligi, xalq va din manfaatlarini o‘z manfaatidan ustun qo‘yishi va har qanday sharoitda u o‘z maslak-e’tiqodidan qaytmasligi namoyon bo‘ladi. Bunga qarama-qarshi tarzda L.Bo‘rixon o‘z nafsi qondirish yo‘lida hech nimadan qaytmaydigan mo‘taziliya tarafдорлари Abu Rizo Tusiy, Vosiq ibn La’liy, Nizom ibn Parvez kabilarni to‘ladan kelgan, chiroyli liboslarga burkangan ko‘rinishda tasvirlaydi: “Semiz gavdali, shohona liboslari yarashiqsiz, o‘rta bo‘y, tund yuzli Nizom ibn Parvez a’yonlari qurshovida mag‘rur kirib keldi. Zar yoqalari ustiga kaft bosib, andak bosh irg‘ab ahli supa bilan salomlashgan bo‘ldi”[3,160].

Mana shunday odamlarga nisbatan Imom Moturidiy Samarqand hokimi huzurida bo‘lgan bahsda shunday fikr bildiradi: “Ahli ilm, ahli ummat, dinimiz rahnamolari ziyoda xotirjamliqqa, farog‘atg‘a cho‘mg‘an ko‘rinadi. Unutmang, ki tan farog‘ati g‘aflatg‘a, g‘aflat halokatg‘a boshlagay. Mo‘minlar onasi Oisha roziyallohu anho Nabiy sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladilar, ki ul zot bir kun kelib ummatim maishatg‘a berilib, semirib ketishidan qo‘rqaman, qabilinda so‘z aytdilar” [3,163].

Tarixiy roman talablaridan kelib chiqqan holda yozuvchi asar qahramonlarining tashqi qiyofasini ularning ijtomoiy kelib chiqishi, yoshi, mansab-lavozimidan kelib chiqqan holda tasvirlaydi. Jumladan, sarkarda va Samarqandning muvaqqat hokimi Xolid Xalajning portreti quyidagicha chiziladi: “Salkam ikki quloch bo‘y-basti, keng yag‘rirlari tug‘ma jangchi, atoyi polvon ekanligidan darak berib turgan Xolid Xalaj ibn Bo‘ronbiy kursisiga omonatgina cho‘kdi. Hokimlik nishonasi sifatida yoqt tosh qadalgan sallasini ensasi tomon surib hozirgina tugagan sershovqin ziyofat, g‘ala-

g‘ovur, sha’niga betinim aytilgan maqtov-madhiyalar og‘riq kiritgan boshini siladi.”[3,26].

Roman qahramonlarining tashqi qiyofasi tasviri bilan birga ularning ichki olami, ruhiyati ham yuzaga chiqadi. Xolid Xalaj ham har doim o‘zini o‘zi taftish qiladi, hayotda yashashdan maqsadini aniqlashga, ko‘ngli nima demoqchi ekanligini fahmlashga harakat qiladi.

Shuningdek, ushbu asarda gavdalantirilgan ayollar, ya’ni Mastonbibi, To‘tiyoxonim, Surayyo, Odinabibi obrazlarining portreti bir-biridan mutlaqo farqli tarzda tasvir etilgan. Bu xotin-qizlar bir davr va bir jinsga mansubligiga qaramay bir-biridan juda farqlanuvchi yorqin obrazlardir. Masalan, imomning rafiqasi Mastonbibi – Ubaydulla attorning qizi, 15 yoshida Abu Mansur Moturidiyga uzatiladi. Serhasham imorati, boy-badavlat oilasi bo‘lishini orzu qilgan bu ayol turmush o‘rtog‘ining oddiy turmush sharoitida yashashiga ko‘nikolmaydi. Undagi ochko‘zlik, alamzadalik tuyg‘ulari o‘zida mavjud bo‘lgan ne’matlarning qadriga yetishiga monelik qiladi: “Xona to‘rida seryamoq ko‘rpaga burkanganicha xotini uxbab yotardi. Uning shu yotishida ham beadoq zarda, iddao seziladi. Aslida, uyda uch-to‘rt qalin, ohorli ko‘rpa-ko‘rpacha bor. Lekin Mastonbibi o‘zining zabun holini, Abu Mansur bilan bir umr yashab hech bir ro‘shnolik ko‘rmaganini yana bir karra ta’kidlash uchun yirtiq-yamoq kiyimlar kiyib, eski-tuski to‘sak ustida yotishni ma’qul sanaydi. Ayniqsa, uyda janjal junbishga kelgan, ayol shang‘illab dunyonи boshiga ko‘targan kezlari ana shunday bo‘ladi” [3,35].

Asar voqealari rivoji davomida adib Mastonbibi obrazini faqat salbiy bo‘yoqlarda tasvirlaydi. U nafaqat imom Moturidiyning, balki boshqalarning nazarida ham hech bir ijobjiy xarakter xususiyatiga ega bo‘lmagan ayol sifatida gavdalanadi. Yozuvchining Mastonbibi obrazini ilm-ma’rifatsiz, dunyo hoy-u havaslariga berilgan, o‘zining burch va vazifalarini unutgan ayolni imom bilan yonma-yon holda tasvirlashi beziz emas. Bu bilan Moturidiyning naqadar ziyoli, sabr-qanoatli, kamtarin inson ekanligiga urg‘u berib, bu ayol bilan birgalikda hayot kechirish o‘zi uchun sinov ekanligini his qilib yashashi, bu bilan Moturidiyning boshqalarda uchramaydigan

sifatlarini bir daraja ko‘taradi. Oxir-oqibat rafiqasi turmush o‘rtog‘iga qilgan barcha nohaqliklaridan pushaymon bo‘ladi. Buning yaqqol isbotini Mastonbibining o‘limi oldidan Abu Mansur Moturidiyga bildirgan iqrорidan anglash mumkin: “Aslida sizni g‘oyat sevganman. Sevgim bois rashk o‘tida yonganmen. Siz ulug‘ olim edingiz, olimlar ichra tengsiz edingiz. Men buni anglaganim bois sizni hasham ichida ko‘rgim keladi. Rang-barang liboslar kiyib, tulporlar o‘ynatib yurishingizni istardim. Chunki men sizni hashamlarga, zeb-u ziynatga, mol-u davlatga loyiqsiz, deb o‘ylardim. Keyin bilsam ul arzimas matolar sizga loyiq emas ekan. Siz har nedan, har kasdan yuksak ekansiz” [3,322].

Mastonbibiga qarama-qarshi tarzda juda go‘zal va latofatli ayol sifatida tasvirlangan To‘tiyo xonim – Vosiq ibn Qosimning rafiqasi – Samarqanddagi eng sohibjamol va badavlat ayol sifatida gavdalanadi: “Mana! Mana, Samarqandning sara suluvi! Mana, afsonalarga xos go‘zallik, latofat va malohat timsoli To‘tiyo xonim! Kim aytadi uni qirqni qoralab qolgan deb? Hech kim! Qop-qora quyuq va uzun sochlarining gajak-gajak zulflarini ko‘ring! Bunday tiniq, nafis chehra tag‘in kimda bor?” [3,284,285]. “Adabiyot ayol qahramondan, xuddi aksar erkaklar singari, go‘zal bo‘lishni taqozo qiladi. Na Zuhra, na Shirinning go‘zallik bobida boshqa ayollardan past turishi mumkin emas. Buni adabiyotning nafis san’at ekanligi, hayotdagи go‘zallikni aks ettirishga safarbar etilganligi taqozo qiladi” [2,455].

To‘tiyoxonim yoshligida faqatgina tashqi go‘zallikni afzal biladi. Atrofida biror-bir undan-da chirolyi ayolni ko‘rishni xohlamaydi. Yozuvchi To‘tiyoxonimni o‘z turmush o‘rtog‘iga har jihatdan munosib etib tasvirlaydi. To‘tiyoxonim ham Vosiq ibn Qosim ham tashqi go‘zallikni, so‘zamollikni, o‘zgalarning ko‘ziga chirolyi bo‘lib ko‘rinishni istashadi va shu sababdan ayolning eriga ta’siri kuchli, u Vosiq ibn Qosimni bemalol boshqara oladi. Ammo bu ayol keksalik chog‘ida o‘zgarib, moddiy va ma’naviy go‘zallikni o‘zida mujassam etishga chog‘lanadi. Vosiq ibn Qosimga “Sayoz soy sharqirab oqqay, tubsiz daryo hamisha sokin, vazmin...”

Siz haqiqatning emas, oson shon-shuhrat, izzat-ikrom payida bo‘ldingiz”, - deb, u imom Moturidiyning to‘g‘ri yo‘lda, Vosiq ibn Qosimning yanglish yo‘lda ekanligini

aytib, bundan keyin o‘z o‘rnini bilib yashashi kerakligini uqtiradi. Luqmon Bo‘rixon To‘tiyoximga asarning hech bir o‘rnida salbiy baho bermaydi, bu obraz shunday tabiiy tasvirlanganki, uning vaqt o‘tib o‘zgarishi tabiiy holdek taassurot qoldiradi.

Somoniylar sultanatining shonli sipohisi, keyinchalik hokimi Xolid Xalajning suykli rafiqasi – Surayyo xonim bo‘lib, adib bu obrazni biroz o‘jar va jasur ayol sifatida gavdalantiradi. Shu bilan birga yozuvchi ayolning ham donoligi, ham ilmli ekanligini ko‘rsatadi. U bilim olishga, kitob o‘qishga shu qadar qiziqadiki, o‘sha davr ijtimoiy muhitidagi islom dinidagi bo‘linish va mafkuraviy kurashlarga qaramay, atrofidagi odamlarni ham ziyoli qilishga urinadi. Bu maqsadiga bir qadar erishadi. Biroq Samarqandga kelib To‘tiyoxonim, Mastonbibi va boshqa ayollarning ilmni emas, mol-dunyoga havas qilib, hayot ikir-chikirlari bilan o‘ralashib qolganligini ko‘rib, bu yerda qolishdan naf yo‘q ekanligini anglaydi: “Ammo ko‘rgan-bilganlaridan Surayyo xonimning hafsalasi pir bo‘lib, xayoli qochib bezovta o‘tirardi. Chunki u Samarqand ayollari deganda o‘qimishli, ilm-u ma’rifatga esh, ziyoli xotin-qizlarni tasavvur etar edi. Ular bilan tafsir, fiqh bobida qizg‘in suhbat qurishni, bilmaganlarini ulashishni juda-juda istar edi. Ming afsuski, tasavvurlari yolg‘on, xayollari sarob bo‘lib chiqdi. Ayni paytda uning qarshisida yaltir-yulturga burkangan sayoz fikr, qashshoq qalb zaifalar to‘pi o‘tirar, biri qo‘yib, biri olib allaqanday sarupolar haqida maqtanar, allakimlarnidir g‘iybat qilar edi” [3,286,287].

Surayyo xonim umrining oxirigacha ilmli bo‘lishga intildi va uning asosiy maqsadi qilich tutib jangdan bo‘shamaydigan Xolid Xalajni ham ziyoli qilish, kitob mutolaasiga oshno qilish edi. Garchi u kitoblarini yong‘indan qutqarish paytida halok bo‘lgan bo‘lsa-da, turmush o‘rtog‘ining qalbida ilm olishga bo‘lgan rag‘batni uyg‘otishga muyassar bo‘ladi. Luqmon Bo‘rixon mazkur romanida ayollar obraziga alohida o‘rin berishdan maqsadi ayollar turmush o‘rtog‘i va oilasining tinch va farovonligini, obro‘sini ta’minlaydi. Xolid Xalajning qalbida ilm olishga mayl bo‘lgan, lekin sipohiy bo‘lib doimiy jang-u jadallarda yurishi bunga izn bermagan. Surayyo xonimning tashabbusi bilan u qo‘liga kitob olib, ilmli bo‘ladi. Hayot yo‘lida uchragan turli qiyinchiliklarning taskinini aynan ziyo yo‘lida topadi va Movarounnahrda shuhrat

qozongan Abu Yusuf Muhammad Xolid Xalajiyga aylanadi. Mana shunday oilasining bezagi bo‘lmish yana bir ayol bu Qutlug‘ Muhammad Nuriyning rafiqasi Odinabibi obrazining badiiylikdagi o‘rni, badiiy yukini alohida qayd etish lozim: “Turk ayollariga xos o‘ktamlik, matonat, epchillik, ochiq yuz, ochiq so‘zlik Odinabibining butun borlig‘iga singib ketgan edi. Mulozamat, xushomad degan narsalarga sira tob-u toqati yo‘q: birdan murod-maqsadga o‘tib qo‘ya qoladi” [3,200]. Garchi asarda mazkur obraz yetakchi o‘rin tutmasa-da, lekin uning tasvirida turk ayollariga xos bo‘lgan sifatlar - oilaparvarvarlik, sarishtalik, aql-farosatlilik yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xullas, Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romanida tasvirlangan obrazlarning har biri o‘ziga xos xarakter xususiyatlari, ichki kechinmalari va dunyoqarashiga ega bo‘lgan shaxslar sifatida talqin etilgan. Yozuvchi inson psixologiyasi va individualligini teran anglagan holda ularning o‘ziga xos portretini gavdalantirgan. Adib mana shunday bir-biriga o‘xshamaydigan insonlar obrazini romanga kiritish bilan uzoq o‘tmishdagi shaxslar siyemosini badiiy tasvirlashga intilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, O‘zbekiston, 2002.
2. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. -Toshkent, O‘zbekiston. 2008.
3. Luqmon Bo‘rixon. Imom Moturidiy. - Toshkent, Yosh kuch. 2023.
4. Mirzayev I. O‘zbek tarixiy romanlarining janr xususiyatlari. -Toshkent, Fan. 1983.